

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI

KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti direktori

Sh.Z.Shukurov



2026 y.

“Statistika asoslari” o‘quv kursining (Vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tashkilotlarning ma‘muriy ma‘lumotlarni yuritish, xalqaro tavsiyalarga muvofiq statistika uslubiatlarini ishlab chiqish, kuzatuvlarni o‘tkazish, statistika ma‘lumotlarini tayyorlash va ularni e‘lon qilish hamda Ochiq ma‘lumotlar portali bilan ishlashga mas‘ul bo‘linmalari xodimlari uchun)

O‘QUV DASTURI

Toshkent-2026

Tuzuvchilar:

- Umarov M.T. - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va statistik registrlarni yuritish boshqarmasining statistik registrlarning yuritish bo‘limi boshlig‘i
- Axmedova M.N. - Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti O‘quv-uslubiy ishlar bo‘limi boshlig‘i

Taqrizchilar:

- Abduvaliyev A.A. - Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktorining ilmiy ishlar, innovatsiyalar va xalqaro aloqalar bo‘yicha o‘rinbosari

Kursning o‘quv dasturi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti Ilmiy kengashining 2026 - yil 25 - Avral dagi yig‘ilishining 01-sonli bayonnoma qarori bilan ma’qullangan.

KIRISH

Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" asarida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoni va 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti faoliyatini takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 106-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida, statistika hisobotini topshiruvchilar, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining statistika sohasidagi savodxonligini va hisobotlarni to'ldirish bo'yicha ko'nikmalarini oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi) bilan kelishilgan holda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2023-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "Rasmiy statistika sohasida kadrlarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishga qo'yiladigan Davlat ta'limi talablari"ga javob beradi. Ushbu malaka oshirish kursi statistikaga doir bilimlarni keng va chuqur tushuntirib berishga asoslanganligi bilan boshqa o'quv kurslardan farq qiladi.

"Statistika asoslari" malaka oshirish kursi tinglovchilarning statistika faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy, nazariy, amaliy, iqtisodiy, ijtimoiy, statistik tahlil bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu malaka oshirish kursi statistika asoslariga doir bilimlarni keng va chuqur tushuntirib berishga asoslanganligi bilan boshqa o'quv kurslardan farq qiladi.

"Statistika asoslari" malaka oshirish o'quv kursining o'quv tematikasi:

I. Statistika faoliyatini tashkil etishning normativ-huquqiy jihatlari va istiqboldagi vazifalar.

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni.
- 2.Statistikani rivojlantirishning 2020–2025-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyasi.
- 3.Statistik kuzatishning mohiyati, turlari va usullari.
- 4.Statistik jamlash va guruhlash usulidan foydalanish.
- 5.Statistik ma'lumotlarni dinamika qatorlari usulida tahlil qilish.
- 6.Ko'rsatkichlarni jadvallar shaklida ifodalash, grafiklar shaklida tasvirlash va ularni tahlil qilish.
- 7.Ko'rsatkichlarning mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlar usullaridagi tahlil.
- 8.Iqtisodiy indekslar usulidan foydalanish.

9. Statistika korrelyatsion va regression tahlil.

10. Iqtisodiyot tarmoqlar faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarining iqtisodiy-statistik tahlili.

11. Statistik hisobotlarni taqdim qilishda "e-stat 4,0" axborot tizimi.

12. "Statistika" integrallashgan axborot tizimi.

Kursning maqsadi va vazifalari

Malaka oshirish kursining **maqsadi** vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat boshqaruvi organlarining statistika bo'yicha mas'ul xodimlarining statistika asoslari borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish asosida ularda statistika uslubiyati va amaliyoti bo'yicha bilimlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- statistika faoliyatini tashkil etishning normativ-huquqiy jihatlarini va istiqboldagi vazifalarini o'zlashtirish;
- statistik kuzatishning mohiyati, turlari va usullari haqida tahlil qilishda tushunchalarga ega bo'lish;
- mavjud statistik ma'lumotlarni jamlash, guruhlash va tahlil etish;
- statistik ma'lumotlarni dinamika qatorlari usulida tahlil qilish;
- ko'rsatkichlarning jadval, grafiklar shaklida ifodalash va ularni tahlil qilish;
- ko'rsatkichlarni tahlil qilishda mutlaq, nisbiy, o'rtacha miqdorlar usulidan foydalanish;
- iqtisodiy indekslar usulidan foydalanish;
- statistika korrelyatsion va regression tahlil usulidan foydalanish;
- iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlil qilish;
- statistik hisobotlarni taqdim qilish bo'yicha "e-stat 4,0" axborot tizimi haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lish;

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Malaka oshirish kursi yakunida tinglovchilardan yangi bilim, ko'nikma hamda malakalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Tinglovchi:

- statistika faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarini;
- statistika uslubiyati va amaliyotining nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini;
- mavjud statistik ma'lumotlarni jamlash, guruhlash va tahlil etishni;

- statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha hisobot va kuzatuv shakllarini;
- statistik ma'lumotlarni dinamika qatorlari usulida tahlil qilishni;
- ko'rsatkichlarni jadval, grafiklar shaklida ifodalash va ularni tahlil qilishni;
- ko'rsatkichlarni tahlil qilishning mutlaq, nisbiy, o'rtacha miqdorlar va iqtisodiy indekslar usullarini;
- tanlanma statistik to'plamni shakllantirishni. Tanlanma statistik kuzatuv ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatishni;
- iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni;
- raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi va texnologiyalarini;
- statistik hisobotlarni qabul qiluvchi e-Stat 4.0 axborot tizimini va uning funksional imkoniyatlarini;

“Statistika” integrallashgan axborot tizimidan foydalanishni ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- statistika ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashda zamonaviy usullar va uslubiyotlardan samarali foydalanish;
- statistika uslubiyati va amaliyotining nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o'rganish;
- mavjud statistik ma'lumotlarni jamlash, guruhlash va tahlil etish;
- statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish, hisobot va kuzatuv shakllarini o'zlashtirish;
- statistik ma'lumotlarni dinamika qatorlari usulida tahlil qilish;
- ko'rsatkichlarning jadval, grafiklar shaklida ifodalash va ularni tahlil qilish;
- ko'rsatkichlarni mutlaq, nisbiy, o'rtacha miqdorlar va iqtisodiy indekslar usulidan foydalangan holda tahlil qilish;
- iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish;

tanlanma statistik to'plamni shakllantirish. Tanlanma statistik kuzatuv ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish;

- statistik hisobotlarni qabul qiluvchi e-Stat 4.0 axborot tizimidan foydalana olish;
- e-Stat 4.0 axborot tizimining funksional imkoniyatlarini to'liq bilish ***ko'nikmasiga*** ega bo'lishi kerak.;

Tinglovchi:

- statistika uslubiyati va amaliyotining nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o'rganish;
- mavjud statistik ma'lumotlarni jamlash, guruhlash va tahlil etish;

- statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish, hisobot va kuzatuv shakllarini o'zlashtirish;
- statistik ma'lumotlarni dinamika qatorlari usulida tahlil qilish;
- ko'rsatkichlarning jadval, grafiklar shaklida ifodalash va ularni tahlil qilish;
- ko'rsatkichlarni mutlaq, nisbiy, o'rtacha miqdorlar va iqtisodiy indekslar usulidan foydalanish;
- iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish;
- tanlanma statistik to'plamni shakllantirish. Tanlanma statistik kuzatuv ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish;
- statistik hisobotlarni qabul qiluvchi e-Stat 4.0 axborot tizimidan foydalana olish;
- e-Stat 4.0 axborot tizimining funksional imkoniyatlarini to'liq bilish **malakalariga** ega bo'lishi kerak.

Kurs hajmi

Mazkur kurs jami 36 akademik soatlik dars doirasida tashkil etilib, Kadrlar makasini oishirish va statistik tadqiqotlar instituti professor-o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlaridan iborat. Ma'ruzalar interfaol uslubda, yakka va guruhda ishlash shaklida o'tkazilib, tinglovchilarni o'quv materialini tanqidiy va muammoli tafakkur etishga chorlash orqali amalga oshiriladi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar Kadrlar makasini oishirish va statistik tadqiqotlar instituti professor-o'qituvchilari tomonidan ta'limning quyidagi interaktiv uslublaridan foydalangan holda olib boriladi: muammoli ma'ruza, ekspress so'rovlar, *case-study*, kichik guruhlarda ishlash, debatlar, savol-javob va h.k.

Ma'ruzalar tegishli mavzular yuzasidan tayyorlangan taqdimotlarni tinglovchilarga namoyish etish orqali o'tiladi. Dars jarayonida kompyuter va multimedia qurilmalaridan (noutbuk, proyektor) foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilarga tarqatma materiallar, avvaldan tayyorlangan misol va masalalar hamda statistika asoslariga oid analitik materiallardan foydalangan holda, mustaqil tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalari ham berib boriladi.

I. "Statistika asoslari" malaka oshirish kursining o'quv modullari va ularning mazmuni

1. Statistika faoliyatini tashkil etishning normativ-huquqiy jihatlari va istiqboldagi vazifalar.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-son qonuni. 2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi.

2. Statistik kuzatishning mohiyati, turlari va usullari

Statistik kuzatishning dasturiy-metodologik masalalari. Statistik kuzatishning tashkiliy masalalari. Statistik hisobot va kuzatuv shakllarini shakllantirish asoslari. Statistik hisobot va kuzatish turlari. Statistikada hisobot shakllari. Statistika kuzatuvlari. Tanlanma kuzatuv shakli. So'rovnoma. Savolnoma. Hisobot va kuzatuv ma'lumotlarini shakllantirish uslubiyati. Statistik kuzatish xatolari va ularni tekshirish usullari.

3. Statistik jamlash va guruhlash usulidan foydalanish.

Statistikada jamlashning mohiyati. Statistik jamlash texnologiyasi. Statistik jamlashning tashkil etilishi. Statistikada guruhlash. Tipologik, analitik va tuzilmaviy guruhlash. Guruhlash usullarining mohiyati, ahamiyati va turlari. Guruhlash intervali va bosqichlari. Guruhlash vazifalari va belgilari. Atributiv va miqdoriy belgilar bo'yicha guruhlash. Ikkilamchi guruhlash va alternativ belgilar. Muhim va muhim bo'lmagan belgilar. Guruhlashni metodologik asosi.

4. Statistik ma'lumotlarni dinamika qatorlari usulida tahlil qilish.

Dinamika qatorlarining mohiyati, turlari, tuzish qoidalari. Dinamika qatorlarining elementlari. davriy dinamika qatorlari. dinamika qatorlarini statistik tahlil qilish ko'rsatkichlari. Mutlaq o'zgarish. Mutlaq o'zgarishning bazis usuli. Mutlaq o'zgarishning zanjirsimon usuli. O'zgarish sur'ati. Qo'shimcha o'zgarish sur'ati.

5. Ko'rsatkichlarni jadvallar shaklida ifodalash, grafiklar shaklida tasvirlash va ularni tahlil qilish.

Statistik jadvallarning mohiyati va ahamiyati. Statistik jadvallarning turlari. Oddiy jadval. Guruhli jadval. Statistik jadvallarni tuzish qoidalari. Kombinatsion jadval. Jadval egasi. Jadval kesimi. Jadval maketi. Jadval ustuni va qatorini tuzish tartibi. Grafiklar haqida tushuncha, statistikada ularning roli va ahamiyati. Grafik tasvir. Grafik maydon. Maydon o'lchovlari. To'g'ri chiziqli koordinata tizimi. Qutbli koordinata tizimi. Masshtab (miqyos). Shkala. Grafik talqin (eksplikatsiya). Grafiklarning turlari va asosiy elementlari. Statistik grafiklar. Diagramma. Kartodiagramma. Taqqoslash diagrammalari. Gistogramma. Poligon. Kumulyata egri chizig'i. Ogiva. Statistika xaritalari. Xaritagramma.

6. Ko'rsatkichlarning mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlar usullaridagi tahlili.

Mutlaq miqdorlar va ularning statistikada ifodalanishi. Natura, shartli-natura, pul va kompleks o'lchov birliklari. Nisbiy miqdorlarning turlari va ularning statistik tahlildagi ahamiyati. Shartnomaning bajarilishi nisbiy miqdorlari. Dinamika nisbiy miqdorlari. Intensiv nisbiy miqdorlar. Koordinatsiya nisbiy miqdorlari. Tuzilmaviy (struktura) nisbiy miqdorlari. O'rtacha miqdorlar va ularni hisoblash usullari. Oddiy arifmetik o'rtacha. Tortilgan arifmetik o'rtacha.

7. Iqtisodiy indekslar usulidan foydalanish.

Indeks. Indeksning mohiyati va o'ziga xos xususiyati. Statistik indeks. Dinamika indeksleri. Shartnoma (buyurtma)larning bajarilish indeksleri. Indeksning turlari. Miqdor ko'rsatkichli indekslar va ularni hisoblash. Miqdor (fizik hajm) va sifat ko'rsatkichli indeksleri. Indeksni hisoblash uslubiyati. Agregat va o'rtacha indekslar. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi yoki tovar aylanmasining umumiy indeksi. Mahsulot fizik hajmi indeksi. Narxning individual indeksi. Narx umumiy indeksi.

8. Statistika korrelyatsion va regression tahlil.

Ijtimoi-iqtisodiy jarayonlarda korrelyatsion bog'liklarni o'rganish. Korrelyatsiya koeffitsiyentining turlari va hisoblash usullari. Chiziqli va chiziqsiz regression bog'lanishlar. Korrelyatsion tahlilda eng kichik kvadratlar usulining qo'llanilishi.

9. Statistika raqamli texnologiyalardan foydalanish

9.1. Statistik hisobotlarni taqdim qilishda "e-stat 4,0" axborot tizimi.

Axborot tizimi. "e-Stat 4.0" – statistika hisobotini taqdim etish axborot tizimi. "e-Stat 4.0" axborot tizimining funksional imkoniyatlari. Ko'rsatkichlarni to'ldirish jadvali, mantiqiy nazorat talablari, tasniflagichlar. "e-Stat 4.0" tizimiga OneID tizimi orqali kirish ketma-ketligi. Elektron raqamli imzo. "e-Stat 4.0" axborot tizimi "Kliyet" moduli. Tizim foydalanuvchisi. Tizimga kirish va undan foydalanish.

9.2. "Statistika" integrallashgan axborot tizimi

"Statistika" integrallashgan axborot tizimining asosiy yo'nalishlari va rasmiy statistik ko'rsatkichlari. "Integratsiya" moduli. "Portal" moduli. SIAT axborot tizimining funksional imkoniyatlari. Tizim foydalanuvchilari. Asosiy sahifada qidiruv tizimi. Reyting diagrammasidan foydalanish. Tanlangan hududlar bo'yicha davrlar ko'rsatkichlarini solishtirish.

10. Iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili

Sanoat statistikasining umumiy ko'rsatkichlari. Qishloq xo'jaligi statistikasi ko'rsatkichlari. Investisiyalar va qurilish statistikasi ko'rsatkichlari. Xizmatlar sohasi statistik ko'rsatkichlar tizimi, ularning shakllanishi va tahlili. Ichki va tashqi savdo statistikasi ko'rsatkichlar tizimi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Shuningdek, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlar, elektron resurslar, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlar tinglovchiga nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'tilgan o'quv moduli mavzularini mustahkamlash maqsadida beriladi hamda tegishli o'quv moduli bo'yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

O'quv modullarini o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-son qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi 27-sonli farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari" 75-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 106-son qarori

5. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonuni.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. –T.: "O'zbekiston". – 2021. –457 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102 b.

III. Maxsus adabiyotlar

8. Soatov N.M. Statistika. // Darslik – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.

9. Abdullayev Yo. Statistika nazariyasi. // Darslik – T.: O'qituvchi, 2002.

10. Shodiyev X.A., Habibullayev I. Statistika. // Darslik – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 268 b.
11. Statistika. o‘quv-uslubiy qo‘llanma. 2022 yil. -75 b. O‘z.R. DSQ huzuridagi nashriyot.
12. Shodiyev T.Sh. Ekonometrika. Darslik. – T. 2020. -250 b.
13. Статистика: Учебник. /Под ред. И.И. Елисеевой– - М.: Проспект, 2010. – ул. 448.
14. Система национальных счетов,2008 г.,ООН, МВФ, ОЭСР, ВБ, Нью Йорк, 2012
15. Аблеева А.М. Система национальных счетов и экономические балансы: учебное пособие. - Уфа, 2012 - 158 с.
16. Milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy va tuzilmaviy o‘zgarishlarning tizimli tahlili. V.Begalov umumiy tahriri ostida. Monografiya, 2018.
17. “Концептуальные основы макроэкономической статистики страны”. Сборник научных статей Госкомстата РУз, под общей редакцией Б.А.Бегалова-Т., 2018.
18. Qoraboyev A.R., G‘oyibnazarov B.K., Rashitova N.X. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2015. – 384 b.
19. Я.С.Мелкумов. Социально экономическая статистика. 2020г.
20. А.С.Трушков. Статистическая обработка информации. 2020 г.
21. В.Г.Ионина. Статистика. 2021 г.
22. В.Б.Яковлев, О.А.Яковлева. Практикум По общей теории статистики. 2022 г.
23. И Еденежкина, С.Е.Степанов, И.И Цыганок. Теория вероятностей и математическая Статистика в.вопросах и задачах.2022 г.
24. “Statistika asoslari” o‘quv kursi bo‘yicha ma’ruza matnlari. 2024-yil. <http://instat.uz/>
25. Питер Брюс и Эндрю Брюс. Практическая статистика для специалистов по обработке данных: 50 основных концепций. 2024 г.
26. А.А.Емилина, Е.А.Долгих. Статистический анализ инновационной активности предприятий и организаций в Российской федерации. 2025 г.

IV. Statistik to‘plamlar va hisobotlar

27. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining yillik davriy nashrlari. 2015-2024 yillar.
28. O‘zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish. Press-reliz. 2024- yil (dastlabki ma’lumotlar). https://stat.uz/img/01-vvp press-reliz-2024_uzb_p61471.pdf
29. O‘zbekiston Respublikasida yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish. Press-reliz. 2024- yil (dastlabki ma’lumotlar). https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/VRP_pressreliz2024yuz.pdf

V. Internet manbalari

30. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti.
31. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
32. www.Siat.uz – “Statistika” integrallashgan axborot tizimi.
33. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlarining milliy bazasi.